

O'ZLiDEP



**TOSHKENT
DAVLAT
YURIDIK
UNIVERSITETI**

**TADBIRKORLAR VA ISHBILARMONLAR HARAKATI –
O'ZBEKISTON LIBERAL-DEMOKRATIK PARTIYASI**

va

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
o'rtasida**

Hamkorlik to'g'risida memorandum

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yilning 22-dekabr kuni o'tkazilgan Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida hamda 2024-yilning 5-fevral kuni Ijtimoiy sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda huquqshunoslik va siyosatshunoslik yo'nalishidagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning ijtimoiy faolligini va intellektual salohiyatini oshirish, bilimlarini yanada mustahkamlash ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston liberal Demokratik partiyasi (keyingi o'rinlarda – O'zLiDeP) va Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o'rinlarda – TDYU) o'z vakillari orqali (keyingi o'rinlarda taraflar deb yuritiladi) mazkur memorandumni quyidagilar haqida imzoladilar:

1-modda

Ushbu memorandumning predmeti "Central Asian Universities debates Championship" (keyingi o'rinlarda – CUDC) loyihasini huquqshunoslik va siyosatshunoslik yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida hamkorlikda o'tkazish, bu borada samarali va o'zaro manfaatli hamkorlikni taraqqiy toptirish masalalari hisoblanadi.

2-modda

Taraflar teng huquqlilik, erkinlik, o'zaro hurmat va ishonch asosida hamkorlikni amalga oshirishni mo'ljallab, shu o'rinda Toshkent davlat yuridik universiteti "CUDC" loyihasining asoschisi ekanligini alohida e'tirof etadilar.

3-modda

Ushbu Memorandumga muvofiq "CUDC" loyihasi doirasida oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan tanlov jarayonini tashkil etish va tanlovning g'olib jamoalarini rag'batlantirishda homiylik mablag'lari jalb qilinishi mumkin. Tashkiliy masalalarni hal etish g'oliblarni rag'batlantirish miqdorlari taraflarning o'zaro kelishuvi asosida hal etiladi.

Loyiha doirasida tanlovni tashkil etish, jamoalarni shakllantirish, tanlov o'tkaziladigan joyni belgilash, loyihani mazmunan to'g'ri va adolatli o'tkazish TDYU mas'ulligida amalga oshiriladi. Bunda tashkiliy masalalar yuzasidan O'zLiDeP xabardor qilib boriladi.

4-modda

Taraflar ushbu Memorandumning imzolanishi tomonlarni hech qanday huquqiy majburiyatlar bilan bog'lamasligini, moliyaviy majburiyatlarning paydo bo'lishiga olib kelmasligi va mazkur majburiyatlarning paydo bo'lishi uchun alohida bitimlar tuzilishi zarurati paydo bo'lgan taqdirda talab qilishini alohida ta'kidlashadi.

Ushbu Memorandum dastlabki shartnoma hisoblanmaydi va taraflarning o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarligi yuzaga kelishi uchun asos bo'la olmaydi, taraflarning hech biri boshqa tarafga ushbu Memorandumning bajarilishi yoki bajarilmasligi, muddati tugashi yoki bekor qilinishi munosabati bilan mazkur taraf tomonidan yetkazilgan zararlarni, shu jumladan cheklovsiz miqdordagi zararlarni ham to'lashga majbur emas.

Hech bir taraf ushbu Memorandum doirasidagi ularning hamkorligi bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshqa taraf yoki taraflar bilan oldindan kelishmasdan ommaviy bayonotlar bilan chiqa olmaydi.

5-modda

Ushbu Memorandum taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va shu kundan boshlab 1 (bir) yillik muddat davomida amal qiladi.



Memorandum taraflar tomonidan bir tomonlama o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin emas. Barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar yozma ravishda bayon etilishi va taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

6-modda

Ushbu memorandum har bir taraf uchun bir nusxada, o'zaro teng huquqiy kuchga ega bo'lgan ikki nusxada o'zbek tilida tuzilgan.

_____ shahrida “_” _____ da ikki nusxada, har biri o‘zbek tilida imzolandi. Bunda barcha matnlar bir xil kuchga ega.

**O‘zbekiston Liberal- demokratik
partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya
qo‘mitasi raisi o‘rinbosari**



A. Aslonov

**Toshkent davlat yuridik
universiteti birinchi
prorektori**



A. Kashimhonov